O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 1751

Mushtariy YOQUBOVA,
Magistrant, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: mushtariytojiboyeva4@gmail.com, ORCID: 0009-0009-8718-3471

Alfraganus universiteti professori, DSc M.Saparniyazova taqrizi asosida

РОЛЬ И ЗНАЧИМОСТЬ ДИСКУРСА ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ КАК ОБЪЕКТА ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются специфические лингвистические особенности цифровой коммуникации, её отличия от традиционной письменной и устной речи, а также её роль как объекта исследования в современной лингвистике.
Ключевые слова: Дискурс цифровой коммуникации, гибридная речь, лингвистическая экономия, объект исследования, виртуальное пространство, речевой этикет, агрессия.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF DIGITAL COMMUNICATION DISCOURSE AS AN OBJECT OF STUDY IN MODERN LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the specific linguistic features of digital communication, its differences from traditional written and oral speech, and its role as an object of research in modern linguistics.
Key words: Digital communication discourse, hybrid speech, linguistic economy, object of research, virtual space, speech etiquette, aggression.

RAQAMLI MULOQOT NUTQINING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli muloqotning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari, uning an’anaviy yozma va og‘zaki nutqdan farqlari hamda zamonaviy tilshunoslikda tadqiqot obyekti sifatidagi o‘rni tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Raqamli muloqot diskursi, gibrid nutq, lisoniy tejamkorlik, tadqiqod obyekti, virtual makon, nutq odobi, agressiya.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya global miqyosda til amaliyotini eng tez o‘zgartirayotgan ijtimoiy-madaniy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ma’lumotlarida internetdan foydalanish ko‘rsatkichlari yil sayin oshib borayotgani qayd etilgan bo‘lib, bu holat onlayn platformalarda yozishmalar hajmining keskin ko‘payishi bilan bevosita bog‘liq[5]. Raqamli muhitda muloqotning asosiy qismi matn ko‘rinishida amalga oshiriladi, biroq u an’anaviy yozma nutqdan farqli ravishda tezkorlik, dialogiklik, emotsional ekspressivlikning grafik ifodasi, multimodallik va interaktivlik kabi belgilar bilan ajralib turadi. Shu sababli “og‘zaki” va “yozma” nutq qarama-qarshiligi doirasida raqamli muloqotni izohlash ko‘plab holatlarda yetarli emas, bu esa zamonaviy tilshunoslikda raqamli diskursni alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rishga metodologik asos yaratadi. Qolaversa, raqamli muhitda til birliklarining qo‘llanilishi nafaqat lingvistik, balki psixolingvistik va pragmatik omillar bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, virtual makonda nutq odobi normalarining o‘zgarishi va agressiv munosabatning ochiq ifodalanishi ushbu sohani fundamental tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishni taqozo etmoqda.

Raqamli muloqot nutqini ilmiy tahlil qilish XX asr oxiri va XXI asr boshida internet lingvistikasi hamda kompyuter vositasidagi kommunikatsiya konsepsiyalari doirasida tizimli ravishda shakllandi. Xususan, D.Crystal o‘zining internet lingvistikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida raqamli muhitda tilning o‘zgarishi, uslubiy registrlar (so‘zlovchining muloqot vaziyatiga, mavzusiga, tinglovchiga va muloqot maqsadiga qarab til vositalarini tanlash usuli) transformatsiyasi hamda identitet (shaxsning tili orqali namoyon bo‘ladigan qiyofasi) va ijtimoiy guruhlararo lisoniy farqlarni ilmiy jihatdan asoslab bergan[1]. Kompyuter vositasidagi muloqotning lisoniy va ijtimoiy-madaniy aspektlarini o‘rgangan S.Herring onlayn yozishmalarni “gaplashuvga yaqin yozuv” sifatida talqin etib, sinxron va asinxron rejimlar hamda ijtimoiy kontekstning kommunikativ shakllarga ta’sirini tahlil qilgan[4].

Diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan raqamli platformalarda matn yaratilishi masalasini tadqiq etgan J.P.Gee virtual makonda kontekst, janr va institutsional qoidalarning ustuvorligini ko‘rsatib o‘tgan[2]. Muloqotning multimodal tabiatiga e’tibor qaratgan G.Kress va T.van Leeuwen kabi olimlar raqamli muloqotda ma’no faqat leksik-grammatik birliklar orqali emas, balki vizual belgilar, shriftlar, emoji (tasviriy belgi)lar va media birikmalarning sintezi natijasida yuzaga kelishini ta’kidlaganlar[6].

Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy nazariy konsepsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi raqamli muloqotning amaliy ko‘rinishlari, ya’ni grafematik ekspressiya (yozma nutqda fikrning ta’sirchanligini, so‘zlovchining his-tuyg‘ulari va subyektiv munosabatini tilning grafik vositalari (harflar, tinish belgilari, shriftlar) orqali ifodalash usuli), kod-almashishning motivlari (so‘zlovchining bir muloqot akti davomida bir tildan (yoki lahjadan) ikkinchisiga o‘tishiga sabab bo‘ladigan ijtimoiy, psixologik va pragmatik omillar), normativ imlo bilan og‘zaki shakllarning raqobati, adresatga yo‘naltirilgan strategiyalar ko‘pincha fragmentar (yaxlit bo‘lmagan shaklda) yoritiladi yoki umumiy kuzatuvlar bilan cheklanadi. O‘zbek tilshunosligida internet matnlarini tahlil qilish bo‘yicha ayrim ishlar mavjud bo‘lib, ular til me’yorlari va uslubiy o‘zgarishlar masalasini ko‘taradi[7]. Shunga qaramay, raqamli muloqot nutqining aynan “tadqiqot obyekti sifatidagi o‘rni”ni – ya’ni u


qaysi nazariy asoslarga tayanishi, qaysi lisoniy birliklar va qaysi me’yoriy ko‘rsatgichlar bilan tavsiflanishi mumkinligini asoslangan dalillar asosida yaxlit o‘rganishga ilmiy ehtiyoj mavjud. Mazkur bo‘shliq, bir tomondan, raqamli muloqotdagi birliklarning tezkor yangilanishi va janrlar ko‘pligi, ikkinchi tomondan esa, tadqiqot uchun asos bo‘ladigan matnlar bazasining shakllanmagani va ma’lumotlarni tahlil qilish qoidalarining yagona tartibga solinmagani bilan izohlanadi.

Yuqorida raqamli muloqotning zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiqot obyekti sifatida tutgan o‘rni va nazariy asoslarini ko‘rib chiqildi. Mazkur nazariy xulosalarga tayangan holda, raqamli muloqot nutqining lisoniy tabiatini shakllantiruvchi o‘ziga xos xususiyatlarini ochiqlash maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasida raqamli muloqot an’anaviy og‘zaki va yozma nutq shakllari o‘rtasidagi qat’iy chegaralarni umumlashtiruvchi o‘ziga xos lisoniy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Virtual makonning kommunikativ tabiati til birliklarining ham shakliy, ham funksional jihatdan transformatsiyaga uchrashiga sabab bo‘ldi. Ushbu transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda quyidagi fundamental xususiyatlarni alohida ajratib ko‘rsatish o‘rinlidir.

Birinchidan, raqamli muloqot nutqi o‘zining gibrid xususiyati bilan xarakterlanadi[8]. Garchi ushbu nutq shakli tashqi ifodalanishiga ko‘ra yozma ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, uning ichki strukturasi va uzatilish sur’ati bevosita og‘zaki nutq qonuniyatlariga tayanadi. Tilshunoslikda “yozma so‘zlashuv nutqi” deb e’tirof etiluvchi ushbu hodisa doirasida matnning qat’iy imlo va punktuatsiya qoidalaridan ko‘ra, axborotning tezkorligi va hissiy ta’sirchanligiga ustuvorlik beriladi. Natijada, an’anaviy yozma nutqqa xos bo‘lgan murakkab sintaktik qurilmalar o‘rnini og‘zaki nutq elementlari – sodda, to‘liqsiz va “uziq-yuluq gaplar” tizimi egallaydi. Bu esa raqamli muloqotni tilning yangi, sintezlashgan yashash shakli sifatida baholashga imkon beradi.

Ikkinchidan, virtual muhitning o‘zgaruvchan tabiati va axborot almashinuvi uchun ajratilgan vaqtning cheklanganligi lisoniy tejamkorlik tamoyilini yuzaga keltirdi. Ushbu tamoyil raqamli nutqda ikki sathda: leksik va punktuatsion darajada yaqqol namoyon bo‘ladi. Leksik sathda so‘z va iboralarning maksimal darajada qisqartirilgan shakllari (masalan, “X-sa” – Xudo xohlasa; “Ok” – ma’qul; “mm” – mumkin; “kk” – kerak; “bn” – bilan va hk.) faol qo‘llanilishi muloqotning tejamkorligini ta’minlayotgan bo‘lsa, punktuatsion sathda esa tinish belgilari o‘zining an’anaviy grammatik funksiyasidan uzoqlashib, pragmatik-semantik yuklamani o‘ziga oladi. Xususan, gap yakunidagi ko‘p nuqtalar yoki takrorlanuvchi undov belgilari so‘zlovchining ruhiy holati, ikkilanishi yoki emotsional munosabatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatgich vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, raqamli nutqning vizual tabiati undagi nolisoniy vositalarning ahamiyatini oshiradi. Jonli muloqotda fikrning ta’sirchanligini ta’minlovchi ohang, mimika va pantomimika kabi vositalarning yo‘qligi virtual makonda kompensator (o‘rnini bosuvchi) vositalar tizimini shakllantirdi. Emojilar, stikerlar (muayyan personaj yoki g‘oyani aks ettiruvchi tematik tasvirlar to‘plami) va GIF-tasvirlar (qisqa va takrorlanuvchi animatsiyalardan iborat grafik format) ushbu tizimning markazida turib, ular shunchaki vizual bezak emas, balki matndagi pragmatik ma’noni aniqlashtiruvchi muhim lisoniy qurol sifatida xizmat qiladi. Masalan, oddiy minnatdorchilik ifodasi bo‘lgan “Rahmat” so‘zi ortidan qo‘llanilgan turli emojilar (tabassum) xabarning samimiylik yoki ijtimoiy masofa darajasini aniq belgilab beradi. Ya’ni raqamli muloqot nutqi an’anaviy lisoniy qoliplarni inkor etmaydi, balki ularni yangi muloqot muhitiga moslashtiradi. Gibridlik, tejamkorlik va kompensator vositalarning uyg‘unligi raqamli muloqotning lisoniy tabiatini belgilovchi tayanch ustunlar bo‘lib, ular zamonaviy tilshunoslikda ushbu sohani alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zaruratini tasdiqlaydi.



Raqamli muloqotning o‘ziga xos lisoniy tabiati – ya’ni yozma nutqning og‘zakilashishi va grafik vositalarning emotsional yuklama olishi – bevosita virtual makondagi nutq odobi va uning antitezi bo‘lgan nutqiy agressiya ko‘rinishlarini belgilab beradi. Agar yuqorida tahlil qilingan lisoniy vositalar (emojilar, qisqartmalar, punktuatsiya) muloqotni osonlashtirishga xizmat qilsa, ulardan me’yor darajasida foydalanmaslik yoki muloqot jarayonida noto‘g‘ri qo‘llash o‘zaro aloqaning buzilishiga, ya’ni destruktiv (vayronkor) nutqiy andozalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, virtual kommunikativ makonning o‘ziga xos ekstralingvistik (lisoniy bo‘lmagan) tabiatiga ko‘ra, muloqot ishtirokchilarining shaxsiy identifikatsiyasi yashirin qolishi (anonimlik) va muloqot ishtirokchilari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘z aloqasining mavjud emasligi an’anaviy nutqiy etiket (nutq odobi) me’yorlarining sezilarli darajada mo‘rtlashishiga olib keladi. Mazkur holat raqamli muloqotda nutqiy agressiyaning spesifik shakllari va yangi vayronkor (destruktiv) muloqot andozalarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu hodisalarni quyidagi tipologik asosda kengaytirilgan tahlil qilish lozim:

Raqamli nutqning hissiy barqarorligi buzilishi natijasida yuzaga keluvchi fleymerlik hodisasi zamonaviy tilshunoslikda o‘ziga xos “lisoniy portlash” sifatida tavsiflanadi. Mazkur jarayonda lisoniy vositalar o‘zining an’anaviy informativ, ya’ni axborot berish funksiyasidan butunlay voz kechib, bevosita affektiv zarba berish quroliga aylanadi. Fleymerlikning lisoniy tarkibi va kommunikativ tabiati muayyan markerlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi; xususan, grafik aksentuatsiya, ya’ni matndagi barcha harflarning bosh harflar bilan yozilishi virtual diskursda akustik baqiriqning lisoniy ekvivalenti sifatida baholanadi. Ushbu grafik usul suhbatdoshga nisbatan psixologik tazyiq o‘tkazish va muloqotdagi iyerarxik ustunlikni namoyish etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fleymerlik diskursida giperpunktuatsiya hodisasi, ya’ni tinish belgilarining, xususan, undov va so‘roq belgilarining meyordan ortiq va asossiz ravishda qo‘llanilishi agressiyaning vizual-akustik manzarasini yanada kuchaytiradi. Bunday holatlarda punktuatsiya birliklari matnning mazmuniy-mantiqiy qurilishiga emas, balki so‘zlovchining destruktiv hissiy holati va nutqiy tajovuzkorligini ifodalashga yo‘naltiriladi. Binobarin, fleymerlik raqamli muloqotda tilning estetik va etik normalarining inqirozi sifatida namoyon bo‘lib, u muloqotning konstruktiv maydondan destruktiv maydonga ko‘chishini belgilovchi asosiy lisoniy omildir.

Raqamli nutqning manipulyativ imkoniyatlaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga asoslangan trollik strategiyasi zamonaviy tilshunoslikda muloqotni ongli ravishda izdan chiqarishga qaratilgan murakkab lingvistik provokatsiya sifatida tadqiq etiladi. Ushbu hodisaning o‘ziga xos jihati shundaki, undagi agressiya har doim ham ochiq yoki bevosita shaklda namoyon bo‘lmay, ko‘pincha yashirin xarakterga ega bo‘ladi. Trollikning lisoniy uslubi asosan kinoya, piching, istehzo va ziddiyatli savol-javoblar tizimidan tashkil topib, subyekt ushbu vositalar niqobi ostida o‘zining haqiqiy kommunikativ niyatini yashiradi. Mazkur jarayonda tilning an’anaviy kommunikativ-

informativ vazifasi butunlay inkor etiladi va uning o‘rnini suhbatdoshni hissiy muvozanatdan chiqarishga yo‘naltirilgan fativ destruksiya, ya’ni muloqot o‘rnatish niqobi ostidagi vayronkor harakat egallaydi. Binobarin, trollik andozasi muloqotni samarali va konstruktiv natijaga emas, balki sun’iy ravishda yuzaga keltirilgan o‘zaro tushunmovchilik va ziddiyatli nutqiy vaziyatlarga yo‘naltirishi bilan raqamli diskursning salbiy transformatsiyasini belgilab beradi.

Raqamli muhitda muayyan obyektga, xususan, shaxs, ijtimoiy guruh yoki muayyan g‘oyaga nisbatan barqarorlashgan dushmanlik munosabatini ifodalovchi xeyterlik hodisasi zamonaviy tilshunoslikda «nafrat tili» deb ataluvchi keng qamrovli tushunchaning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilmoqda.Ushbu fenomenning leksik-semantik asosini obyektga nisbatan tizimli ravishda qo‘llaniladigan peyorativ leksika (o‘zida salbiy baho, kamsitish, nafrat, piching yoki haqorat ma’nolarini ifodalovchi so‘z va iboralar), kamsituvchi epitetlar hamda shaxsning ijtimoiy nufuzini tushirishga qaratilgan haqoratli birliklar majmuasi tashkil etadi. Xeyterlik nutqi o‘zining vayronkor tabiati bilan nafaqat virtual etiket meyorlarini inkor etadi, balki jamiyatda lisoniy va ijtimoiy murosasizlik muhitini shakllantiruvchi asosiy diskursiv omil bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, mazkur muloqot andozasining lingvistik tahlili raqamli makonda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta’minlash va agressiv nutqiy harakatlarning lisoniy chegaralarini belgilashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, fleymerlik, trollik va xeyterlik kabi hodisalar raqamli muloqotning lisoniy tabiatidagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos lisoniy qurollar va amaliy niyatlar (pragmatik maqsadlar) asosiga quriladi. Ushbu vayronkor modellarni o‘rganish virtual makonda nutq madaniyatini tartibga soluvchi yangi meyorlarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli diskursda kuzatiladigan fleymerlik, trollik va xeyterlik kabi agressiv modellar muloqotning destruktiv tabiatini ko‘rsatsa-da, ushbu jarayonlarni jilovlovchi va ijtimoiy-lisoniy muvozanatni ta’minlovchi, maxsus tartibga soluvchi mexanizmlar ham mavjud. Aynan mana shunday vayronkor harakatlarga nisbatan lingvistik va etik “antidot” sifatida namoyon bo‘ladigan regulyativ asos – raqamli nutq odobi yoki “netiket” tushunchasidir. Raqamli muloqotning lisoniy tabiati transformatsiyaga uchrashi natijasida an’anaviy “nutq odobi” tushunchasi mazmunan kengayib, ilmiy muomalaga “netiket” atamasi kirib keldi. Zamonaviy tilshunoslik va lingvopragmatika nuqtayi nazaridan netiket – bu shunchaki virtual makondagi qoidalar majmuasi emas, balki raqamli diskursda muloqot samaradorligini ta’minlovchi, kommunikativ inqirozlarning oldini oluvchi muhim lingvopragmatik mexanizmdir. Virtual nutq odobining funksional asosi bir necha fundamental lisoniy tamoyillar orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, lisoniy bag‘rikenglik tamoyili raqamli muloqot ishtirokchilaridan fikrlar xilma-xilligi sharoitida lisoniy ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu jarayonda keskin inkor shakllari va kategorik hukmlar o‘rniga turli modal so‘zlar, evfemistik (yumshatuvchi) konstruksiyalar hamda «mening fikrimcha», “ehtimol” kabi kirish birikmalardan foydalanish ustuvorlik qiladi. Bunday yondashuv suhbatdoshlar o‘rtasidagi “psixologik masofa”ni saqlashga va muloqotning agressiv maydonga ko‘chib o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli nutqning vizual tabiatidan kelib chiqqan holda grafik madaniyat tushunchasi netiketning ajralmas qismiga aylandi. Emojilar, stikerlar va tinish belgilarini matnning semantik mazmuniga muvofiq, meyoriy darajada qo‘llash nutq odobining asosiy shartlaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lisoniy va grafik vositalarning haddan tashqari ko‘p, o‘rinsiz qo‘llanilishi adresat (qabul qiluvchi) tomonidan nafaqat “axborot bosimi”, balki yashirin nutqiy agressiya sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Shu sababli, grafik elementlar muloqotni boyituvchi qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilishi, matnning asosiy mazmunini to‘sib qo‘ymasligi lozim.

Uchinchidan, reaksiya madaniyati raqamli muhitdagi destruktiv nutqiy harakatlarga nisbatan qo‘llaniladigan eng samarali pragmatik strategiya hisoblanadi. Bu tamoyil vayronkor nutqiy aktlar (trollik, fleymerlik)ga nisbatan ongli ravishda sukunat saqlash yoki vaziyatni konstruktiv maydonga qaytarishni ko‘zda tutadi. Raqamli diskursda ushbu tamoyil nafaqat shaxsiy madaniyatni, balki muloqot ishtirokchisining lingvistik immuniteti shakllanganligini ham anglatadi.



Xulosa qilib aytganda, raqamli makonda nutq odobi va uning antitezi bo‘lgan agressiya hodisalari – bu til egalarining yangi texnologik va ijtimoiy muhitdagi lisoniy hamda madaniy darajasini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Raqamli nutqning lisoniy va pragmatik imkoniyatlarini chuqur anglash, ulardan Netiket me’yorlari asosida foydalanish virtual muloqotning madaniylashuviga hamda tilning jamiyatdagi integratsiyalashuv funksiyasini barqaror saqlashga xizmat qiladi. Ushbu me’yorlarning lingvistik tahlili nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy nutq madaniyatini yuksaltirishda ham fundamental ahamiyat kasb etadi. Raqamli muloqot nutqi – bu shunchaki texnologik jarayon emas, balki tilning yashash shaklidagi evolyutsion bosqichdir. Undagi nutq odobi va agressiya masalalari esa jamiyatning madaniy darajasini ko‘rsatuvchi indikator bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sun’iy intelekt va inson muloqoti kesishmasida yanada dolzarblashib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Crystal D. Internet Linguistics: A Student Guide. — London : Routledge, 2011. — 192 p.
2. Gee J.P. An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method. — New York: Routledge, 2014. — 256 p.
3. Hambridge S. RFC 1855: Netiquette Guidelines / S. Hambridge // IETF Network Working Group. — 1995. — URL: https://datatracker.ietf.org/doc/html/rfc1855
4. Herring S.C. Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social and Cross-Cultural Perspectives. — Amsterdam: John Benjamins, 1996. — 328 p.
5. International Telecommunication Union. Measuring digital development: Facts and figures 2023 — URL: https://www.itu.int/
6. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. — London: Routledge, 2006. — 312 p.
7. Mahmudov N. O‘zbek tilining stilistikasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 1992. — 240 b.
8. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М.: Художественная литература, 1975. — 504 с. (Shu to‘plam ichidagi *"Слово в романе"* tadqiqoti)